



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776(E) | SJIF 2023: 6.907

Tojiboyeva Ozoda Saydulla qizi

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat, sport va maktabgacha ta'lim fakulteti
maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi
ozodatojiboyeva304@gmail.com*

MAKTABGACHA TA'LIMDA INKLYUZIV TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Anotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim maqsadi va vazifalari bolalarning qobiliyati va holatidan qat'iy nazar ularning barchasiga sifatli ta'lim berishi, bu borada olib borilgan izlanishlar haqida fikr yuritilgan. Shu qatorda, inklyuziv ta'limda imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan oddiy maktabda ta'lim olishlari lozimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, nogironlik, imkoniyati cheklangan bolalar, logopediya, defektologiya, sog'lom avlod, ta'lim, tarbiya, rivojlanish.

Аннотация: В данной статье говорится о цели и задач инклюзивного образования, которое заключается в обеспечении качественного образования всем детям, независимо от их способностей и статуса. Кроме того, было подчеркнуто, что дети с ограниченными возможностями инклюзивного принципа должны жить в семье и учиться в обычной школе со своими сверстниками, чтобы иметь положительное умственное и социальное развитие.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, дети с ограниченными возможностями здоровья, логопедия, дефектология, здоровое поколение, образование, воспитание, развитие.

Abstract: In this article, research has been conducted on the purpose and tasks of inclusive education, which is to provide quality education to all children, regardless of their ability and status. In addition, it was emphasized that children with limited opportunities of the inclusive principle should live in a family and study in a regular school with their peers in order to have a positive mental and social development.

Key word: Inclusive education, children with disabilities, speech therapy, defectology, healthy generation, education, upbringing, development.

Kirish. Hozirgi kunda O'zbekiston barcha sohalarda jahon tendensiyalari asosida jadal rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga, ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Milliy ta'lim siyosatining zamonaviy va amaliy yo'nalishlaridan biri inklyuziv ta'limni rivojlantirishdir. Buning uchun alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni sog'lom bolalar bilan birga ta'lim olishlari uchun bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, inklyuziv ta'limga butun jahon bo'ylab e'tibor qaratilmoqda. Masalan, UNICEF inklyuziv ta'limni ta'lim tizimiga kiruvchi masalalari bilan shug'ullanadi. Inklyuziv ta'limning vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi. UNICEF Xalq ta'limi vazirligining defektolog va psixologlarning inklyuziv ta'limdagi roli to'g'risidagi nizomi loyihalarini ishlab chiqishga ko'maklashdi;

- UNICEFning ko'magi inklyuziv ta'lim bo'yicha 5 yillik ish rejasi ta'lim sohasining umumiy rejasiga kiritilishini ta'minladi. Istiqboldagi rejalar tanlab olingan mintaqalarda inklyuziv ta'lim uslublarini tajriba sifatida joriy etish uchun Xalq ta'limi vazirligiga texnik yordam ko'rsatish;

- maktabga qatnamaydigan yoki yo'lda xatarga uchrayotgan bolalarga alohida e'tibor qaratadigan viloyat bolalar rivojlanish markazlarida tegishli o'quv dasturlarini joriy etish;

- o'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilar uchun mo'ljallangan va imkoniyatlari cheklangan bolalar oddiy maktablarda bilim olishlari mumkin bo'lishiga qaratilgan alohida dasturlarni «Speshial Olimpiks» ko'magida O'zbekistonda tajriba



sifati UNICEF inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi.

Asosiy qism. O'zbekiston Pespublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 13-oktabrda qabul qilingan "Alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim- tarbiya berishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori bunga yaqqol misol bo'la oladi. Mazkur hujjatda mamlakatimizda inklyuziv ta'limni rivojlantirish imkonini beruvchi qator tashkiliy vazifalar belgilab berilgan.

2020-2025-yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Uni maxsus ta'limga muhtoj bolalar tegishli davrgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Inklyuziv ta'lim umumta'lim jarayonini rivojlantiradi va barcha bolalarga mos bo'lgan ta'limni joriy qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim olishiga oid qo'shimcha moslamalarni tashkil qilib bolalarni ta'lim olishiga qulay sharoit yaratadi. Inklyuziv ta'lim har xil ehtiyojli bolalarning ta'lim olishiga qaratilgan metodologiyani rivojlantirishga harakat qiladi. Agarda inklyuziv ta'limni tatbiq etishda dars beris, o'qitish bir muncha samarali va unumli bo'lsa unda nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar, balki, barcha bolalar yutadi. Inklyuziv ta'lim maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bilim olish uchun shaxsiy huquqlarini himoyalaydi. Bunday yondashuv diskriminasiyani bartaraf etadi, kamaytiradi, chunki bolalar bir-birlari bilan muloqot qilish jarayonida, o'qitilish jarayonida turli ehtiyojlarga ega individum ekanliklarini anglaydilar. Sharqning mashhur allomalari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nosr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniylarning tarbiyaning maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta'limning ta'siri to'g'risidagi qarashlari inklyuziv rivojlanishining metodologik bazasi hisoblanadi.

Inklyuziv ta'limning vazifalari:

Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim uchun zaruriy psixologik-pedagogik, koreksion sharoitlarni yaratish imkoniyatiga yo'naltirilgan umum ta'lim dasturlari va rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

- o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash;

- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;

- imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni ajratmagan holda yashash huquqini ro'yobga chiqarish;

- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga do'stona va mehr-muhabbat his-tuyg'ularni shakillantirishdir.



Inklyuziv maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachisi quyidagi sifatlarga ega bo'lishi kerak;

Avvalo, tarbiyachi inklyuziv tafakkurga ega va ta'lim sifati mas'uliyatini o'z zimmasiga olishi shart.

Inklyuziv ta'limning maqsadi: Bolalarning qobiliyatiga holatidan qat'iy nazar, ularga ta'lim berishdan iboratdir. Bundan tashqari shuni ham aytishimiz mumkinki, ta'lim ham sog'lom, ham imkoniyati cheklangan bolalarga birdek kerak. Biz har bir bolani bag'rikeng bo'lishga o'rgatish bilan birga inson qadriyatlari uning imkoniyatiga bog'liq ekanligi haqidagi fikrni singdirmog'imiz lozim. Insonlar orasida turli fe'l va qiyofaga ega insonlar mavjudligiga o'rgangan bolalar kelajakda o'zlaridan farq qilgan bolalarga zulm yetkazmaydi. Jismoniy rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanavchilar uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qatnash, muloqot qilish ko'nikmalariga ega bo'lish imkoniyatini yaratib berib, ularning keyingi ijtimoiy moslashuvini osonlashtiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish usullaridan biri bu:

- maktabgacha ta'lim tashkiloti tizimida inklyuziv ta'limni rivojlanishi vayanada yuksaltirish bo'yicha yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni va logopediya shahobchalarni tashkil etish va muvaqqatlashtirish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim defiktologik xizmatini takomillashtirish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv o'quv muhitini yaratish bolalar va ularning ota-onalari, tarbiyachilarga ijtimoiy –psixologik xizmat ko'rsatishda zamonaviy yondashuvlar va metodlarni ishlab chiqish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim uchun shart - sharoitlar yaratish nazarot qilib berishning sifatini va samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish hamda ularning bajarilishini nazorat qilish;

Xulosa. Xulosa qilib aytish joizki, inklyuziv ta'lim bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'iy nazar ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishni ko'zda tutadi. Ushbu ta'limni yurtimizda joriy qilish imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlardan oq sog'lom bolalar qatoriga qo'shib sifatli ta'lim olishini ta'minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va harakatlarini rivojlantirish uchun ham muhimdir. Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi. Bundan tashqari, inklyuziv ta'limda bolalarning dunyoqarashi kengayadi, hayotiy



tajribasi oshadi, o'qishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishlari ortadi, o'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi, ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi, yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo'qoladi. Inklyuziv ta'lim sog'lom bolalarga ham ta'sir ko'rsatadi. Ular o'zlariga o'xshamagan tengdoshlari va ularning hayoti, ehtiyojlarini his qiladilar va tengdoshlariga g'amxo'rlik hissi uyg'onadi. Ularni qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish, insonparvarlik hissi tarbiyalanadi. Bundan tashqari, bolalar atrofdagi insonlarga, imkoniyati cheklanganlarga pozitiv munosabat, o'zaro hurmat ruhida tarbiyalanadi. Yordamga muhtoj insonlarga e'tiborsizlik qilmaydigan insonlarga aylanadilar. Inklyuziv guruhlarda o'quv tarbiya jarayoni ijobiy munosabat va ertaga bugundan ham yaxshiroq bo'lishiga ishonch bilan yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Har bir mashg'ulotni shunday yakunlash lozimki, barcha bolalar uni ishonch va mamnuniyat bilan hamda yana va yana o'qish, o'rganish ishtiyoqi bilan tark etsin. Ana shunday muhitni yarata olsakina, chinakam bilimli jamiyatni qura olamiz. Barchasi biz pedagoglarning shijotimiz va mahoratimizga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi "Nogironlar huquqini ijtimoiy himoyalash to'g'risida"gi Qonun – 1991-yil.
2. "Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'lim to'g'risida muvaqqat Nizom" –XTV 234-sonli buyrug'i 2005-yil 19-sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "Maktabgachata'lim tizimni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarori.
4. Qaxarova D.S "Inklyuziv ta'lim texnologiyasi" o'quv va metodik qo'llanma 2014-yil.
5. Shomaxmudova R. , Razzoqov O.J. "Inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy asoslari"-Toshkent-2007-yil